

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

# Tong Yulduzi

2013-yil 5-avgust  
N:31 (66936)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



## YOSH KIMYOGARLAR TUHFASI

Kuni kecha yurtimiz bo'ylab yana bir ajib xushxabar tarqaldi. 15–24-iyul kunlari Moskva shahrida bo'lib o'tgan 45-xalqaro kimyo fani olimpiadasida o'zbekistonlik o'quvchilar bitta oltin, ikkita bronza medalni qo'lga kiritib, dunyodagi ilmga chanqoq tengdoshlaridan sira qolish-masliklarini yana bir bor isbotlashdi. Ularning Istiqlol bayramiga munosib tuhfa bo'lgan bu ulkan muvaffaqiyati yurtdoshlarimiz qalbida faxr tuyg'usini uyg'otdi.

(Davomi 2-betda)

### Ushbu sonda:

«Mustaqillik madhi  
bolalar ijodida»  
tanloviga 3-bet

«Chotqol»,  
bir umr yodimda  
qol! 4-bet

Ingliz tilini  
o'rganamiz!  
Let's learn English!  
5-bet

Bolaligim  
ertaklari 6-bet

## ISTIQLOL SOVG'ASI

Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Xo'jabaland mahallasida joylashgan 106-umumta'lim maktabi o'quvchilari yangi o'quv yilini yangi binoda boshlashadi. Hashar yo'li bilan barpo etilgan mazkur maktabda 323 nafar o'quvchi ikki smenada tahsil olib kelardi. Endilikda ular qo'shaloq bayram – Mustaqillik hamda Bilimlar kunini «Quyi Tegin quruvchi» xususiy firmasi quruvchilari tomonidan qurib berilgan 260 o'rinli yangi, ko'rkam, zamon talablari darajasidagi maktab binosida nishonlaydigan bo'lishdi.

(Boshi 1-betda)

## YOSH KIMYOGARLAR TUHFASI

Aslida dunyoning 77 davlatidan 302 nafar bilimdon yoshlar ishtirok etgan olimpiadada qatnashishning o'zi katta sharaf. Negaki, ushbu bellashuvda ishtirok etgan har bir o'quvchining bilim darajasi, aql-u zakovati o'ta yuqoridir. Hamyurtimiz Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 1-akademik litseyi o'quvchisi Bekzodbek Boltayevning ushbu olimpiadada oltin medalga, shuningdek, O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S. Sirojiddinov nomli akademik litsey o'quvchilari Biloliddin Sharobiddinov va Dilshoda Artikbayevaning bronza medalga sazovor bo'lishi yoshlarimizning qanday salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Yosh kimyogarlarimizning bunday yutuqqa erishishlarida jamoa rahbari Oybek Xoliqov va ustoz Saidakrom Saidumarovning mehnatlari beqiyos. Bekzodbek esa ularning ishonchini oqlay olgani va yurtimizga yorug' yuz bilan qaytganidan xursand. Uning aytishicha, muvaffaqiyatining siri o'zi tahsil olayotgan ilm dargohida ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilganida, shuningdek, olimpiadalarga tayyorgarlik vazifasi birgina o'qituvchi zimmasida bo'lmay, balki butun jamoa hamjihatlikda ish olib borishida ekan.

Shuni faxr bilan e'tirof etish lozimki, yurtimizdagi har bir bilim maskanida o'quvchilarning fan sirlarini puxta o'rganishlari uchun ana shunday ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Bilimga chanqoq o'g'il-qizlarimiz esa ilm cho'qqilarini zabt etishmoqda.

Zero, mana shunday ozod va obod yurtda yashab, orzular sari intilgimiz, dunyo bilan tenglashgimiz kelaveradi!

Sayyora QODIROVA

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida joylarda «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» shiori ostida qator tadbirlar o'tkazilmoqda. Kuni kecha poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Amir Temur mahalla fuqarolar yig'inida «Odob-axloq – yoshlarning ko'rki» deb nomlangan kecha bo'lib o'tdi.

## MAHALLA – TARBIYA O'CHOG'I



litsey o'quvchilari ishtirok etishdi.

Tadbirda mahalla fuqarolar yig'ini raisi so'zlab, yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni haqida to'liqlanib gapirdi. Insonning ko'rki uning odob-axloqida ekanligi haqida fikrlar bildirildi.

O'tkazilgan savol-javoblarda faol qatnashgan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi Farangiz Hakimova bir ovozdan «Orasta yoshlar» klubining yetakchisi etib saylandi.

Ushbu klub a'zolarining yig'ilishi har haftaning payshanba kunlari o'tkazilishiga kelishib olindi.

O'z muxbirimiz

Unda «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi tuman Kengashi raisi Adolat Yahyoyeva, mahalla fuqarolar yig'ini raisi Yoqub aka Mo'minov, mahalla maslahatchisi Zulfiya Rasuli, Hamid Olimjon mahallasi raisi Mukambar Shermuhammedova, «Orasta yoshlar» klubi mas'uli Nozima Abdurahmonova, 142-umumta'lim maktabi, kollej va



**Bolajonlar, qadim urf-odat va an'analarimizni o'zida aks ettirgan milliy raqs san'atining o'ziga xosligi, liboslarimizning ko'rkamligi, nafis bezaklarining betakrorligini yaxshi bilamiz. Hatto xorijdan kelgan sayyohlar ham milliy do'ppilar-u**

**cho'g'irmalarimizga katta qiziqish va hayrat bilan qarashayotganiga ko'p bora guvoh bo'lganmiz. Ayniqsa, raqqosalarning milliy kuy-qo'shiqlarimiz ohangiga monand xirom aylayotganini ko'rib, ko'nglimiz yanada ko'tariladi...**

Yaqinda «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi hovlisida yangragan karnaysurnay sadosi barchani o'ziga chorladi. Bu yerda qanday bayram bo'lgani bilan qiziqyapsizmi?

Unda diqqat bilan quloq soling.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan «Milliy raqqosalar» Respublika ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Yozgi ta'tilda bolajonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, ijodiy salohiyatlarini yanada yuksaltirish maqsad qilingan ushbu ko'rik-tanlovning tuman, viloyat bosqichlarida g'olib bo'lgan yosh iste'dod sohiblari respublika bosqichida ham o'z iqtidorlarini sinovdan o'tkazishdi. Unda yurtimizda faoliyat yuritayotgan «Barkamol avlod» markazlaridan tashrif buyurgan 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar ishtirok etishdi.

– Bugungi kunda respublikamizdagi badiiy ijodiyot yo'nalishida faoliyat yuritayotgan 2728 ta to'garaklarga jami 64699 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilingan, – deydi «Barkamol avlod» Respublika



**BO'LAJAK  
RAQQOSALAR**

bolalar badiiy ijodiyot markazining monitoring va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish guruhi rahbari Zuhra Qodirova. – O'tkazilayotgan bu tanlov sabab bolajonlarimizning milliy raqs san'atiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortsa, maqsadga erishgan bo'lamiz.

Ko'rik-tanlov ishtirokchilarining chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi. Unga ko'ra, 1-o'rin Navoiy viloyati, Zarafshon shahar «Barkamol avlod»

bolalar markazining «Binafsha» raqs guruhiga, 2-o'rin «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi qoshidagi «Yulduz» folklor xalq raqqoslari to'garagi a'zolariga hamda Toshkent shahar, Shayxontohur tumani «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi «Asal» guruhiga nasib etgan bo'lsa, 3-o'ringa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Ko'zmunchoq» raqs guruhi, Samarqand viloyati, Nurobod tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Ofarin» raqs guruhi hamda Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi «Boychechak» raqs guruhi loyiq deb topildi.

«Eng nafosatli guruh» nominatsiyasiga Buxoro viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazining «Zebigardon» guruhi sazovor bo'ldi.

Yosh raqqosalar tomonidan ijro etilgan raqqosalar yig'ilganlarga bir olam zavq ulashdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.  
Zuhra NISHONOVA  
olgan surat



«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA» tanloviga

Sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov «Oilani muqaddas bilmaganlar uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q», deb yozgan edi.

OILA - MUQADDAS QO'RG'ON



Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblangan. Bu qo'rg'onning o'z podshosi, vaziri bor. Ular oilaning tinchligini, totuvligini ta'minlovchi mo'tabar insonlardir. Ota-onalar o'rtasidagi munosabat o'zaro hurmatga, mehrga asoslangan bo'lsa, farzandlar ham ulardan ibrat olishadi, o'z burch va vazifalarini to'liq bajarishga harakat qilishadi.

Shuningdek, oilani muqaddas biluvchi insonlar nafaqat o'z oilasi, balki qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilariga ham g'amxo'rlik qilishni o'z burchlari

deb bilishadi. Bu esa milliy qadriyatlarimizdan biridir.

Oilalar farovonligini ta'minlash jamiyatimizning ustuvor, dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Vatan ostonadan boshlanadi, deganda, oila ostonasi nazarda tutilgan bo'lsa, ajabmas. Shunday ekan, Vatanga sadoqat, yurtga muhabbat tuyg'ulari ham aynan shu muqaddas go'shada shakllanadi. Inson ruhiyatida bir xislat borki, u oilada o'rganganlarini bir umr unutmaydi va hamisha unga sodiq bo'lib yashaydi.

Bugun kamolimni intiqlik bilan kutayotgan ota-onam orzusi meni kelajakda yurt koriga yaraydigan komil inson bo'lishimni ko'rishdir. Men ham ularning orzusini amalga oshirish yo'lida tinmay izlanmoqdaman, bilim olmoqdaman. Kelajakda jurnalist bo'lishni xohlayman. Ko'plab tanlovlardagi ishtirokim, g'olibligim menga yanada ilhom va qanot bag'ishlamoqda.

Xurshida SHAMSIDDINOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi  
3-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MAQSADIMGA ERISHDIM



Yaqindagina ushbu sevimli gazetamizda chop etilgan «So'nggi qo'ng'iroqdan so'nggi o'ylar» maqolasida men ham o'z orzularim bilan o'rtiqlashgandim. Mana bugun orzumga erishdim. P. F. Borovskiy nomidagi tibbiyot bilim yurtining o'quvchisi bo'ldim. Yurtimizda biz yoshlarga e'tibor katta ekanligini yana bir bor qalban his etdim.

Ushbu ta'lim maskani juda ko'rkam bo'lib, o'quv va alohida amaliyot binosi mavjud ekan. Endilikda hunar o'rganib, qadrdon gazetam «Tong yulduzi»ga kollejimiz hayoti haqida yozib yubormoqchiman. Zero, hali kelajakda jurnalist bo'lishdek orzularim bor.

Gulzoda ISLOMOVA,  
Toshkent shahar, Hamza tumani

SINOV OMAD KELTIRSIN

Keyingi yillarda ilmga changoq yoshlarimiz safi yanada kengayib borayapti.

Kuni kecha yurtimizning barcha oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari bo'lib o'tdi. Minglab yoshlarimiz o'z bilimlarini jiddiy sinovdan o'tkazishdi. Oliygoahlar ostonasida oqqushlar kabi tizilib turgan yoshlarimizni ko'rib, zavqlanamiz. Xayolimizdan ulug' donishmandning quyidagi satrlari kechadi:

Ilm ham hunar ol, qadrla uni,  
Ilm ham, hunar ham qadrlar seni.  
Zakat, ilm izla, yurmagin bekor,  
Kezi kelsa, nafi tegar bir kuni...

Ayni damda ilm, hunar egallashga talpingan ukasingillarimizga qarata, barcha qilgan ezgu amallaringiz ijobat bo'lsin, degimiz keladi. Zero, biz ilm olishdan tolmagan buyuk bobolarimiz ruhi pokidan kuch olib, kelajagi buyuk mamlakatimiz ravnaqi yo'lida bor bilimimizni ayamasligimiz darkor. Yurtboshimizning: «Kelajagimiz yoshlar qo'lida», deya bizga



bildirgan ishonchini oqlash uchun ilm, hunar cho'qqilarini egallashimiz lozim. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar mavjud. Ilm egallashni sinfxonalardan boshlagan yoshlarimiz hech qachon pand yemaydi, qo'li doimo baland keladi. Vaqt inson uchun berilgan bebaho ne'mat. Uning qadriga yetib, vaqtimizni behuda o'tkazmasdan ilm olishga intilaylik. Toki bilimli, zukko tengdoshlarimiz dunyo ahlini hayratda qoldiraversin.

Sarvar MUSURMONOV,  
O'zMU talabasi

QALDIRG'UCHNING CHAMANI




Kuz kelganda, qaldirg'och  
Ucharkan janub tomon.  
Ammo qadrdon uyin,  
Sog'inar ekan yomon.

Bahor kelsa, qaldirg'och  
O'z iniga qaytarkan.  
Yo'l-yo'lakay vijirlab,  
Yurt qo'shig'in aytarkan.

Izlab o'z qo'rg'onini,  
Tinim bilmay uchar u.  
Mo'jazgina inini,  
Jannatim deb quchar u.

Sog'ingan-da axir u  
Kulcha nonning isini.  
Hattoki qaldirg'och ham  
Anglar Vatan hissini!  
Dilnavoz NAJIMOVA



VATAN NIMA?

Bir kuni ukajonim yonimga kelib:

– Opajon, Vatan o'zi nima? – deb so'rab qoldi.  
– Vatan bu mustahkam oilamiz, qadrdon maktabimiz, obod mahallamiz, aziz ota-onamiz-u mehribon ustozlarimiz. Vatan otamizdek ulug' va aziz. Komil inson bo'lib ulg'aysak, uning gullab-yashnashiga hissa qo'shsak, sevib, ardoqlasak, barcha orzularimiz amalga oshadi, – dedim.

– Men ham katta bo'lsam, yaxshi inson bo'laman, Vatanimga xizmat qilaman, – deydi ukajonim.

– Niyating hamrohing bo'lsin! Men esa shifokor bo'lib odamlarga foydam tegsa, deyman. Shu yo'l bilan Vatanimga xizmat qilmoqchiman.

Dildora RUSTAMOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi  
26-umumta'lim maktabi o'quvchisi

OTA-ONAMGA



Ota-ona mo'tabar, u zotlar aziz,  
Qancha e'zozlasak arzir, shubhasiz,  
Mehrlarin tuyib o'syapman g'amsiz,  
Mudom ta'zim qilsam arzir ularga.

Qalbimni charog'on etgan ziyolar,  
Betob bo'lsam, dardimga mehriyolar,  
Suyanchim, yupanchim, mehri daryolar,  
Mudom ta'zim qilsam arzir ularga.

Ular bor, har onim shodlikka to'lar,  
Tunlari oromim osuda bo'lar,  
Boshimdagi tojim, davlatim ular,  
Mudom ta'zim qilgum ota-onamga.

Muazzam HASANOVA,  
Ohangaron pedagogika va ijtimoiy-  
iqtisodiyot kasb-hunar kolleji o'quvchisi



# «CHOTQOL», BIR UMR YODIMDA QOL!

«Xayrli tong, bolajonlar! Yangi kun barchamizga muborak bo'lsin! U xayrli, mazmunli, maroqli o'tsin. Endi barchamiz birgalikda tonggi badantarbiyani boshlaymiz. Bir-ikki, uch-to'rt...»  
Bo'stonliq tumanining so'lim Yusufxon qishlog'ida joylashgan «Chotqol» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 3-mavsumda dam olayotgan 600 nafar o'g'il-qizning har bir tongi ana shunday so'zlar bilan boshlanadi. Quvnoq musiqa sadolari ostida bajariladigan mashqlar esa ular kayfiyatini ko'tarib, tetiklik baxsh etadi.

Oshpaz aka-opalari tayyorlagan mazali nonushtadan so'ng yotoqxonalarini tartibga keltirishadi, hovli va yo'laklarini supurib-sidirishadi. Orastalik posbonlari ko'rigidan o'tgach, har kim o'zi qiziqqan mashg'ulot bilan band bo'ladi. Kimdir kutubxonaga,

short maydonchasiga, yana kimdir to'garak mashg'ulotlariga oshiqadi. Kechki payt oromgohda jo'shqin hayot qaynaydi. Guruhlar o'zlari tayyorlagan kuy va qo'shiqlar, raqslar, sahna ko'rinishlarini namoyish etishadi. Ularning chiqishlarini hakamlar hay'ati a'zolari baholab borishadi. Kechki saftanish chog'ida guruhlarining olgan baholari jamlanib, g'oliblar shirinliklar bilan siylanadi.

Erkin aka Dehqonov rahbarlik qilayotgan mazkur oromgohning tabiati juda xushmanzara, musaffo havosidan nafas olib to'yimsan, kishi. Aytishlaricha, bu yerdagi mevali va manzarali daraxtlarni Erkin akaning o'zi ekib, parvarishlagan ekan. Endilikda ularning soyasidan, mevasidan minglab insonlar bahramand bo'lishyapti, bog'bonga rahmatlar aytishyapti.

## DO'STLIK FESTIVALI

«Chotqol»da dam oluvchilarning har bir kuni xuddi bayramdek o'tadi. Turli sanalarga bag'ishlangan tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, sport musobaqalari hech



kimni zeriktirib qo'yamaydi. E'tiborlisi, bunday tadbirlarga barcha bolalar jalb qilinadi.

Yaqinda «Chotqol» do'stlarni chorlaydi» deb nomlangan an'anaviy bolalar festivali bo'lib o'tdi. Unda «Gagarin», «Konstruktor», «Yoshlik», «Nihol», «Metallurg» kabi qo'shni oromgohlarda dam olayotgan o'g'il-qizlar ham ishtirok etib, o'z san'atlarini namoyish etishdi. Tadbir ishtirokchilari oromgoh tomonidan sovg'a-salomlar bilan taqdirlanishdi, yangi-yangi do'stlar orttirishdi.

## O'G'LONLAR BELLASHUVI

Oromgohda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni Mohira opa Ahmedova olib boradi. Erta tongdanoq ma'rifiy mavzularda radioeshittirishlar tayyorlaydi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan filmlar namoyishini tashkillashtiradi, suhbatlar, uchrashuvlar uyushtiradi. «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» shiori ostida tantanali ravishda o'tadigan oromgohning ochilish va yopilish marosimlari dam oluvchilarning bir umr yodida qolsa, ajab emas.

«Biz sog'lom turmush tarzini tanlaymiz!» shiori ostida o'tgan «Chotqol o'g'lonlari» nomli ko'rik-tanlovda oromgohda dam olayotgan barcha o'g'lonlar ishtirok etib, o'z bilim va intellektual salohiyatlarini sinovdan o'tkazishdi. Giyohvandlik, OITS kabi illatlarni qoralab, ularning ayanchli oqibatlarini aks ettirilgan sahna ko'rinimlarini namoyish etishdi. She'r, qo'shiq, raqs kabi shartlar asosida qiziqarli tarzda o'tgan tanlovda 14-guruh o'g'lonlari g'olib chiqishdi.

## SPARTAKIADA SARALARNI SARALADI

Oromgoh rejasiga ko'ra, har mavsumda 3 kun davomida spartakiada musobaqalari o'tkaziladi. Unda har kim o'zi qiziqqan sport turlari bo'yicha bellashadi. Ayniqsa, futbol, stol tenisi, shaxmat-shashka, suzish, arqon sakrash, uzunlikka sakrash kabi musobaqalar qiziqarli tarzda o'tdi. Saralar saralanib, eng ko'p diplomni qo'lga kiritgan guruhga kubok topshirildi hamda shirinliklar ulashildi.

## ENG OBOD GURUH

«2013-yil – Obod turmush yili» munosabati bilan oromgohda «Eng obod guruh» nomli ko'rik-tanlov e'lon qilindi. Har bir guruhning o'ziga ajratilgan

mashg'ulotlarini ham davom ettirishyapti. Futbol musobaqalarida, spartakiadalarda qatnashib, chiroyli o'yinlar ko'rsatishyapti.

Umid qilamizki, bunday maroqli hordiqdan so'ng yosh futbolchilarimiz yanada ulkanroq zafarlar quchadilar.

Biz esa, «Bunyodkor», zafar senga bo'lsin yor, deymiz!

## ORASTA QIZLAR

Oromgohda tadbirlar, asosan, o'g'il bolalar ishtirokida o'tar ekan-da, deya xulosa chiqarishga oshiqmang. Bu yerda dam olayotgan qizlar ham sira zerikishmaydi. Turli ko'rik-tanlovlar, musobaqalar o'tkazib, qiz bolaga xos bo'lgan fazilatlarini qay darajada egallaganliklarini namoyish etib borishadi. Bilganlarini tengdoshlariga o'rgatishadi, bilmaganlarini o'rganishadi.

«Chotqol» go'zali» nomli ko'rik-tanlov, ayniqsa, qiziqarli tarzda o'tdi. Go'zallik deganda nafaqat tashqi, balki qalb go'zalligi, qiz bolaning odobi, axloqi, yurish-turishi, kiyinish madaniyati, ibosi, hayosi tushuniladi. Aynan ana shu fazilatlar, shuningdek, pazandalik, chevarlik, soch turmash kabi shartlar bo'yicha bellashgan qizlarimizning baholari umumlashtirilib, 9-guruh a'zosi



maydonni qay darajada orasta, sarishta saqlayotgani, bog'chadagi gullar, manzarali o'simliklar parvarishi kuzatib borildi. Bolajonlar o'z mehnatlari bilan nafaqat guruh, oromgoh, balki yurtimiz obodligiga ham o'z hissalarini qo'shayotganlaridan mamnun bo'lishdi.

## «BUNYODKOR» BOLALARI OROMGOHDA

«Bunyodkor» bolalar va o'smirlar sport maktabining mohir futbolchilari ko'plab nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelishayotgani barchamizga ayon. Ular yaqinda Ukrainada o'tkazilgan xalqaro turnirda 3-o'rinni egallab, barchamizni mamnun etishgandi. Lekin mohir sportchi bo'lsalar-da, ular ham baribir bolalar. Shunday ekan, barcha tengdoshlari kabi ta'tilda miriqib dam olishga, musaffo tog' havosidan bahramand bo'lishga birdek haqlilar.

Shu maqsadda «Bunyodkor»-chilar murabbiy Denis Korostichenko boshchiligida ushbu so'lim go'shada yoz gashtini surishyapti. Tog' yonbag'irlarida

Z u m r a d Fozilxonova g'olib deb topildi va «Chotqol» go'zali» nomiga sazovor bo'ldi. «Eng chaqqon qiz», «Eng orasta qiz», «Eng pazanda qiz», «Eng faol qiz» kabi nominatsiyalarga sazovor bo'lgan qizlar ham oromgoh ma'muriyati tomonidan «Faxriy yorliq»lar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Xullas, shunaqa gaplar! Bu so'lim go'shada Mohira Ahmedova, Nodira Xalilova, Aziza Yo'ldosheva singari tajribali, fidoyi, mehribon tarbiyachilar hamrohligida har bir kuni zavqli, qiziqarli voqealarga boy tarzda o'tayotgan o'g'il-qizlarning, «Chotqol», bir umr yodimda qol, deyiшлиari bejiz emas.

YULDUZKON

*Aziz bolajonlar!*

*Gazetamizning o'tgan sonida ranglarning inglizcha nomlari berilgan edi. Bugun bilimingizni yanada mustahkamlab, har bir gapda yashiringan rangni toping.*



## Hidden Colors Yashiringan ranglar

Find the name of a color hidden in each sentence:

Har bir gapda yashiringan rangni toping:

Some parts of the face are the eye, eyebrow, nose, and mouth.  
I am not really dumb; lack of sleep made me forget the answers.  
If I tell you what she said, will you agree never to tell anyone.  
In the box we found a pencil, a pin, keys, and a few coins.  
Are three zeros enough to write the number one thousand?  
The wheelbarrow hit even rocks at it rolled down the hill.

## Animals in hiding Yashiringan hayvonlar

Find the animals hiding in the following sentences:

Example: Close the door at once!



1. That will be a real help.



2. You came late every day.



3. We came to America today.



4. Eric owes me ten cents.



5. We made errors in each one.



6. Do good workers succeed?



7. If I shout, he will hear me.

8. If Roger comes, we shall begin



Risolat ISMOILOVA

*Aziz tengdoshlar, bilishimiz muhim bo'lgan bu so'zlarni deyarli har kuni ishlatamiz.*

Bosh – head  
Soch – hair  
Yuz – face  
Qovoq – eyelid  
Qosh – eyebrow  
Ko'z – eye  
Kiprik – eyelash  
Quloq – ear  
Burun – nose  
Lab – lip



Til – tongue  
Tish – tooth  
Yelka – shoulder  
Qo'l – hand  
Tirnoq – nail  
Yurak – heart  
Bel – waist  
Oyoq – foot.

Nigora ABDUNAZAROVA

## I CAN COUNT!

I know English, I can count  
I have uncle and three aunt  
One, two, three  
Beautiful birds on a tree.  
Four, five, six  
Learn by heart it, but not mix.  
Seven, eight, nine  
Knowledge good thing



## THE POETIC GREETING!

Good morning, hello and hi  
(Good afternoon, hello, hi)  
This land is bliss your, my.  
Uzbekistan – sacred land  
Bloom, blossom and fly!

We swear to learn, try  
Insight our will be high.  
Untill next meeting you  
All the best. OK. Good bye!

your and mine!  
1 3 6  
2 5 9  
8 5 7

Muhiddin XOLIQOV,  
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi  
60-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi 2-akademik litsey o'quvchisi  
Umida NISHONOVA sevimli bolalar adibi Safar Barnoyevning «Chiroqli  
salom» nomli kichik hikoyasini ingliz tiliga tarjima qilibdi.  
Uni o'qib, siz ham chiroqli salomlashishni o'rganib oling, bolalar.

## BEAUTIFUL GREETING

Nigina got up late. The family members were having their breakfast. Her grandfather Xurshid bobo didn't wait for his granddaughter and went out. Nigina said to her grandfather:

– Dear grandfather, will you go out even I shall not greet you beautifully?

– Yes, he said. Greeting should be said early in the morning after washing hands and face.

Just a moment, she said. Nigina washed her face and hands in a hurry. Then became up to the mirror and combed her hair. Then she looked at her grandfather and bowed.

– Good morning, dear grandfather.

– Good morning, – said and kissed her. The grandfather went out. Nigina was happy because of her grandfather.



## LAZY PIG (fairy-tale)

## ERKATOY GHO'CHQACHA (Ertak)



At last time was a pig and her piglets. Every day mother of the piglets went to the forest for pick up some food to her children. At that time children stayed at home and waited their mother.

The first piglet's name was Clever. Second's name was Merry and the third name was Lazy. Because he was very lazy and he hated of help his mother and brothers. Only he liked to do nothing and slept a lot.

One day children wanted to wake happy their mother and they thought how to do it. At that time Clever said to his brother:

«Hey, let's we do all works and tidy up all of the rooms. Maybe than our mother will be glad».

«Very good, I am glad because if our mother see our cleaned rooms she also will be glad», said Merry.

«Hey you! What do you want to do? Let's we are sleeping now and we would get up when our mother come back and eat our dinner at that time».

So Lazy slept and he didn't help to his brother. At that time brothers tidy up rooms and made their home neat.

When the pig come back she saw that the home is very clean.

She was happy. Then she praised her sons.

At that time Lazy woke up and said: «Why are you making a noise?». «Oh my lovely son, did you help to your brother?» said mother pig. But lazy didn't answer and shy a lot because he did nothing and was sleeping when his brother tidy up the rooms.

Dilnavoz ASLONOVA,  
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika  
fakulteti talabasi

(Boshi o'tgan sonda)

KO'ZBO'YAMA OSH

Shoshib bet-ko'limni yuvaman-da, chelakdagi kunjarani alpang-talpan ko'tarib, molxona eshigini ochaman. Sharpadan so'qimlar pishqirib, bo'ynidagi zanjirini shildiratib yotgan joyidan turib ketadi. Ular ikkita. Naq uydek-uydek keladi. Qorong'ida ko'zlari yonib, pishqiradi. Yuragimga vahima tushadi. Qora buqalarning devi bo'ladi, deyishadi. Bir bismillodan ming bismillo aytib, bir vaqtlar tabib xola o'rgatgan Qur'on so'zlari tilimdan bir-bir o'tadi... Shilta va go'ng hididan dimog'achishadi d e m a s a , molxona baribir menga yoqadi. Tashqaridan issiq. Eshikni yopmayman. U bir tomonga tob tashlagan. Tashqaridan kelayotgan ko'r yorug'dan chama olib tert qorishga tushaman. Bir tarafi uyquga to'yamay, bir tarafi och qoringa bunaqa ishga unnash... Voy bo'-o'-o'... Ishim osonlashsin, deb kunjarani har kuni uyquga yotishdan oldin qaynoq suvga bo'ktirib qo'yaman. Kunjara kechasi bilan shira tortib, mayinlashib, ko'pchib qoladi. O'zidan b-i-i-r yoqimli is taratadi. Ishtahani qitiqlaydi. Ichaklarim quldirab, boshim aylanib, yiqilib tushay deyman. Qani endi tomog'imdan o'tsa-yu, men ham moldek bo'kib yeb olsam. Kunjara yeb, jigari shishib o'lganlarni ko'p eshitganman. So'qimlar xayolimdan kechayotganlarni sezgandek bezovta pishqirib qo'yadi. Jonivorlarga mazza. Ularni to'ydiradigan egasi bor. Shunday paytlarda beixtiyor Yaxshi amakini eslab qolaman. Eslyaman-u, «Seni ham o'ylaydigan odam bor, noshukur bo'lma», deb qo'yaman o'zimga o'zim. Bu dunyoda yaxshi odamlar ko'pligini bilaman. Shu odamlar bo'lmaganda, men allaqachon o'lib ketgan bo'lardim. Acha xola, Yaxshi amaki, Mujgon opa, Maxsimcha aka... Ularni o'ylaganda, birdan oyoq-qo'limga kuch kirib ketadi. Tog'oradagi tert ham bir-biriga ilasha qoladi...

(Qissa)

Tert degani, sheluxa bilan kunjarani bir-biriga ilashtirish. Bu ishdan azobi yo'q! Hali-hanuz dunyodagi eng og'ir ish shu bo'lsa kerak, deb o'ylayman! Voy bo'-o'-o'... yengimni shimarib tertni mijiyveraman, mijiyveraman... O'zinning holim o'zimga ma'lum. Qachon qarasa yorilgan

BOLALIGIM ERTAKLABARI

koptokdek shalvirab yuraman. Qachon qornim to'yib non yeganimni bilmayman. Qo'llarim paxta savaydigan savag'ichga o'xshaydi... Qovurg'alarim ko'ylagimni turtib chiqib turadi. Ayacham, chillashirsan, hademay o'lib ketasan, senga non ham, kiyim ham hayf, deb menga jirkangandek qaraydilar. Ikki yuzi qip-qizil, biqqi bolalarni ko'rganimda, nimagadir bo'ynim battar qisil-i-i-b qoladi. O'zimni ulardan olib qochaman. Ayacham aytgan o'lim menga qachon kelar ekan, deb ko'p o'ylayman. O'limdan qo'rqmayman, keladigan bo'lsa, tezroq kela qolsa, deyman. Ammo birov menga tigr'alib qolsa, tagiga tushib, tuproqqa qorishib yotmayman. Kalla qo'yaman, oyog'idan chalaman, ja bo'lmasa, tishlab olaman. Bilaman, bunaqa g'irromliklar mushtlashish shartlariga kirmaydi. «Kalla qo'ydi, oyoqdan chaldi, tishladi», deb jirillaydi narigi tomon. Men boshqa ilojim yo'qligini o'ylab, battar ezilaman.

Bir kuni tert qum toshga o'xshab sirayam aralashaverim. Bildim, kunjaraning shirasi kam ekan. Ko'proq suv qo'shib, shilta qildim-da, oxurga to'kib qo'ya qoldim. Mendan keyin molxonaga kirgan ayacham chaqirib qoldi. Kirsam, «Yer yutkur, so'qim yemagan tertni o'zing ye», deya boshimni oxurga bosib, so'qimlarning tagini tozalaydigan yog'och supurgi bilan savaladi. So'qimlar tertni oxirigacha yemapti.

O'zimni aybdor deb bildim. Ayachamdan yig'lab turib kechirim so'radim. Shu kuni och qoldim. Ayacham ko'zinning oldida bir cho'mich ovqat ustiga bir cho'mich suv qo'shib berdilar-da: - Ichib ko'r-chi, ko'zbo'yama osh qanaqa bo'larkin, - dedi. - He, bo'ying lahatda chirisin...

«Chirisa chirisin, siz qutulib», deb ichimda ming'irlab qo'ydim. Shunday deyish bilan sal bo'lsa ham yengil tortdim. Buni menga Acha xolam o'rgatganlar: «Bilaman, mirzo b o l a m , ayachangizning tili a c h c h i q .

Qarg'aganda, gap qaytarib yurmang-a tag'in. Qarg'ish bilan odam o'lmaydi-yu, lekin bora-bora odamni mayib qilishi bor. Yaxshisi, ayachangiz qarg'aganda, ichingizda bir nima deb qo'ya qoling. Shunday qilsangiz, o'zingizga yaxshi bo'ladi. Ko'pam ezilmaysiz, yigit qaddingiz bukilmaydi, xo'pmi, mirzo bolam?! Nafsilambirini aytganda-chi, bolam, ayachangizga ham osonmas. Sizdan salgina

katta, xolos. Sochi o'ringayam Erkin MALIK kirmagan hali. O'gaylik qiladi. Sizzi g'ash oladi-da... Ov... urush o'lsin, hammani sarson-sargardon qilib qo'ydi...»

Shu kuni ko'zbo'yama oshni ichvolib, kechasi bilan yugur-yugur bo'lib chiqdim. Ertasiga ko'nglim aynib, tuz ham totolmay, sillam qurib qoldi. Ayacham aytgan ajal kelib qoldimikan, deb o'ylayman. Biroq, yashagim kelardi. Ayacham bo'lsa, ahvolimni ko'rib turib baqiradi:

- Hay, nahs bosganmisan, buncha sudralasan, chaqqon-chaqqon qimirlasang-chi, itning keyingi

oyog'i! Oxiri ayacham menga boshdan oyoq jirkangandek qarab, birdan saxiyiligi tutib ketdi:

- Ma, zaharingga...

Qarasam, kaftimda paxtadek oppoq kallaqand. Oh... bunaqasini yeyish qayda, ko'rishga ham zor edim. Ayacham buncha yaxshi, buncha mehribon! Shu payt ancha yillar oldin istansada oyim ikkovimizga uchragan gadoy bola yodimga tushib ketdi. O'shanda oyim unga rahmi kelib pul berganida, u oyimning qappaygan qorniga qarab: «Ramazon aytib keldim eshingizga, Xudoyim qo'chqordek o'g'il bersin beshingizga», deb o'yinga tushib bergan edi. Shu damda o'yinga tushishga holim yo'q edi-yu, ammo «ramazonni...» aytib yubordim... Biroq, ayachamning qorni puchchayib yotgani hech esimda yo'q. Bu tarafini o'ylamabman. Oh, kaltakning tagida qoldim, deb bo'ynimni qisib turgan edim, har tugul ayacham: «Voy savil-ey», deb mendan yuz o'girib, nari ketdi...

Kallaqandni suvga tekkizib-tekkizib, shimib-shimib ado qildim. Shundan keyin ancha o'zimga keldim. Ha, avvaliga so'qimlarni aldab, ta'zirimni yedim, keyiniga astoydil tavba qildim, shekilli, mukofoti kallaqand bo'ldi.

Bugun ham tertni ehtiyot bo'lib qoraman. Bir - ikki boshim aylanib, tog'oraga munkib ketdim. Ha deganda tert yetilavermaydi, u yoqda so'qimlar zanjirini uzaman deydi...

QO'SQIM VA YANGIM...

Tert tayyor bo'lganda, molxona ichi ancha yorishdi. Holsizlanib, oxur chekkasiga o'tirib qoldim. Xayriyat! Ich-ichimdan yengil bir xo'rsiniq keladi. Peshanamdagi tertni sidirib tashlab, so'qimlarni yana ozgina betoqat qilgim, yalintirgim keladi. Axir ular men sho'rlik o'lib-tirilib tayyorlagan tertni hash-pash deguncha ko'rdim deyishmaydi-da. Shu payt ayachamning ovozi keladi:

- Hay yetimcha, yetti kulcha, o'lib qoldingmi?

Cho'chib tushaman. «Yo'q, hali tirikman, ayacha», deb yana ichimda ming'irlayman.

- Ho-o-zi-i-r...

Ovozim xuddi uzoq-uzoqlardan eshitilgandek bo'ladi.

- Ha, ivirsilamay o'l, lapashang.

Shoshib tashqariga chiqdim. Chiqishim bilan ko'ylagim badinga muzdek bo'lib chippa yopishdi. Ayacham birpas terim qotishiga ham qo'yimadi. Tong yorishgan, hovli yuziga qirov tushgan... Karnay bir nimalar deb javrab yotibdi...

- Bo'l, qo'lingni yuv, qaymoqchilar ketib bo'ldi, itning keyingi oyog'i bo'lib sen qolding.

Eski, pachoq chelakdagi suvga shoshib qo'limni tiqaman. Suv naq chaqib oladi. Tishlarimgacha zirqirab ketadi. Shoshib qo'limni qo'ltig'imga urdim. Shu payt ayachamning ko'zi ko'ylagimning yirtig'iga tushib qoldi-ku.

- Voy o'la-a-a-y, ko'yakni yebsan-ku, yer yutkur...

Nima balo, shox-butog'ing bormi seni?

«Bo'lganim shu, ayacha, nima qilay?» deyman ichimda. Har qalay shapaloq tushishiga o'zimni shaylab turaman. Ayb o'zimga. Eshikning kesakisiga tigr'alib nima qilardim...

(Davomi bor)

S. FARMONOV chizgan rasm



# SOG'LOM BOLA - SOG'LOM JAMIYAT MEVASI

Bugun mamlakatimizda 1,8 million o'g'il-qiz sportning o'ttizdan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Ular orasida sportning suzish turiga mehr qo'rganlar ham talaygina. Barcha hududlarda zamonaviy suv sporti havzalari barpo etilgani va etilayotgani sportsevar bolalar


uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. So'nggi besh yil davomida mamlakatimizda namunaviy loyihalar asosida hajmi 25x12 metr bo'lgan 14 ta yangi zamonaviy yopiq suzish havzasi barpo etildi, 13 ta suzish havzasi qaytadan qurildi, 83 tasi kapital ta'mirlandi. Ayni paytda ikki yuzdan ortiq suzish havzasi yoshlar ixtiyorida.

Bunday keng imkoniyatlar bolalarning suv sporti turlari – suzish, sinxron suzish, suvga sakrash, suv polosi bilan ommaviy ravishda shug'ullanishi uchun keng yo'l ochmoqda. Hozir 13 ming nafardan ortiq o'g'il-qizlar mazkur sport turlari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi 12-ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi ana shunday maskanlardan biri.

Maktabga bolalar yetti yoshdan qabul qilinadi va o'n yilga mo'ljallangan to'rt bosqichli mashg'ulotlar tizimi orqali suzish turlarini o'rganadi. Ayni paytda bu yerda 500 nafarga yaqin o'g'il-qiz ta'lim olmoqda. Iyul oyining o'zida

oltmish nafarga yaqin bola boshlang'ich va sog'lomlashtirish guruhlariga jalb qilindi. O'quvchilarga o'n bir nafar yuqori malakali, oliy ma'lumotli murabbiylar suzish sirlarini o'rgatmoqda.



Muassasada hajmi 25x12 metr bo'lgan zamonaviy yopiq suzish havzasi, sport zali, trenajor zali, kiyim almashtirish, yuvinish, tibbiyot va ma'muriy xonalar mavjud. Suzish havzasi suvni tozalash va haroratni bir maromda saqlovchi zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan. Ertalab soat 8 dan kech soat 19 gacha davom etadigan mashg'ulotlar jarayoni bevosita tibbiyot xodimlari nazorati ostida tashkil etiladi.

Sport bolalarning irodasini toblaydi, kuchli, mard va jasur bo'lib kamol topishlariga xizmat qiladi. Bunday yoshlar esa Vatanimizning buyuk kelajagini quradigan, mustaqilligimizni mustahkamlaydigan komil inson bo'lib ulg'ayadilar.

## FESTIVAL YAKUNLANDI

Sport sog'lik garovi ekanini to'g'ri anglab yetgan ko'plab o'g'il-qizlarimiz bugun sportning u yoki bu turi bilan muntazam shug'ullanib, o'z salomatliklarini tiklashayotgani quvonarlidir. Andijonlik ana shunday sportsevar yoshlarning bir guruhi viloyat markazida tashkil etilgan tennis festivalida o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazib, g'oliblik uchun bahs olib borishdi.

Toshkent dengizida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va qizlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 187 nafar iste'dodli sportchi g'oliblik uchun kuch sinashdi.

## YOSHI SPORTCHILAR IBAHSI

Baydarkada eshkak eshish bo'yicha o'smirlar o'rtasida turli masofalarga o'tkazilgan yakkalik bahslarida chirchiqlik Marlen Sentyagayev ikkita, toshkentlik Temur Mamaroziqov bitta oltin medalni qo'lga kiritdi. Juftliklar musobaqasida poytaxtlik Artur Nurgaliyev va Aleksandr Richko 1000 metrga, chirchiqlik Odil Qayumov va Marlen Sentyagayev 500 metrga o'tkazilgan poygalarda marraga birinchi bo'lib yetib keldi. Artur Nurgaliyev Temur Mamaroziqov bilan birga 200 metr masofani ham birinchi bo'lib bosib o'tdi.

Kanoeda eshkak eshish bo'yicha chirchiqlik Elyorjon Mamadaliyev yakkaliklar o'rtasida 500 va 1000, juftliklar bahsida Artur Guliyev bilan birga 500 va 200 metr masofaga o'tkazilgan poygalarda g'olib chiqdi. 100 metrga eshkak eshishda birinchi o'rin andijonlik kanoechilar juftligi – Behzod Umaraliyev va Jahongir Ismoilovga nasib etdi.

Qizlar o'rtasida baydarkada eshkak eshish bo'yicha yakkaliklar o'rtasida poytaxtlik Yekaterina Gayshinet va Linara Bekirova oltin medalga sazovor bo'ldi.

Kanoechi qizlar o'rtasida Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchisi Dilnoza Rahmatova 500 va 200 metrga eshkak eshishda shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

O'zbekiston chempionati yakunlariga ko'ra, umumjamo'a hisobida Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji sportchilari birinchi o'rinni egalladi. Toshkent shahridagi 23-ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari sport maktabi vakillari ikkinchi, Respublika olimpiya zaxiralari kolleji jamoasi uchinchi o'rinni zabt etdi.

Aytish mumkinki, o'tkazilgan har bir uchrashuv keskin va murosasiz bahslarga boy bo'ldi.


O'quvchilarning kortdagi tezkor harakatlarini kuzata turib, yurtimizda tennischilarning yangi avlodi kamolga yetayotganiga guvoh bo'ldik.

Turnir yakunida umumjamo'a hisobida Marhamat tumani yosh tennischilari birinchi o'rinni qo'lga kiritib, bosh sovrin egasiga aylanishdi. Andijon shahri va Qo'rg'on tepa tumanidan kelgan yosh tennischilar ham musobaqada kuchli o'yin namoyish etib, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni band etishdi.

Yosh ijrochilar ishtirokidagi katta konsert dasturi festival ishtirokchilariga xushnudlik ulashdi.

S. TURSINOV

Shoh MUHAMMAD



Viloyat tennis maktabi kortlarida o'tkazilgan ushbu musobaqa o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, iqtidorli yosh tennischilarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, unda viloyatning barcha tumanlaridan tashrif buyurgan eng sara yosh raketka ustalari kortga chiqdilar.

# BOLALIKKA MAKTUB

*Salom, yuragimning oromgohi! Ahvollaring qanday? Mensiz zerikib qolgandirsan-a? Mening ham sensiz ko'nglim yolg'izlanib qolganday. Seni juda sog'indim...*



S. FARMONOV chizgan rasm

Kecha uyimiz derazasidan tashqariga qarab turgandim, bir shirin bolakayning ko'zlarida seni ko'rib qoldim. Kichkintoyning harakatlari biram shirin, biram yoqimli ediki... Onajonisi mittigina qo'llarini mehr bilan silar, oppoq yuzlaridan o'pib, bag'riga bosardi. U esa jahl bilan xarxasha qilardi. Bolakay bu baxtiyor, betakror, totli lahzalar mangu emasligini bilganida edi, balki yig'lamasmi. Men esa ularning harakatlarini havas va allanechuk hayajon bilan jim tomosha qilardim...

Esingdami menga hamroh bo'lgan kezlaring?! O'shanda akam va opam muhim mavzu yuzasidan bahslashganlarida, men ham suhbatga aralashib, «aqllilik» qilardim.

«Topqirligim» uchun erkalashardi, kulishardi. Mening esa



**Shahlo ORZIYEVA,**  
Navoiy viloyati,  
Karmana tumanidagi  
15-maktabning  
7-sinf o'quvchisi

jahlim chiqardi. Chunki menga kattalardek munosabatda bo'lishlarini istardim. «Men kattaman, katta bo'lishni istayman, kichkina bo'lishni yomon ko'raman», derdim...

Nihoyat, sen mendan ketding. Bolaligim, mendan xafamisan? Meni kechir! Hozir esa yana kichkina bo'lib qolishni xohlayman. Yana onam yopib bergan kulchalarni qaymoqqa botirib yeyishni, unga har kuni «Oftobjon» she'rimni aytib berishni, akam,

opamlarga erkalik qilib, ularni kuldirishni, xolamning qizalog'i bilan quvlashmahoq o'ynashni, qo'shnilarning «Voy, Odiljonning sho'x, shaddod qizalog'i-ey», deyishlarini xohlardim. Afsuski, vaqt bizning izmimizda emas-da!..

O'qing, qiziq!



## OY YERDAN UZOQLASHYAPTI

Ha, rost! Bu jarayon ikkala samoviy jism – sayyoramiz va uning yo'ldoshidan tashkil topgan tizim paydo bo'lganidan buyon izchil davom etmoqda. «Tungi chirog'imiz» har yili kurrimizdan 3,8 santimetrga yiroqlashmoqda. Oqibatda uning orbitasi muttasil ravishda cho'zilib bormoqda.

Milliard yilcha muqaddam qamariy oy 27 kunga to'g'ri kelgan. Aniqliq' i, Oy Yer atrofini bir bor to'liq aylanib chiqishi uchun shuncha vaqt zarur bo'lgan. Endilikda-chi? Oyning aylanish tezligi oshmoqda, Yerniki esa unga mutanosib ravishda sekinlashmoqda.

Xo'sh, bu ketishda oqibati nima bo'ladi?

Ming yildan so'ng kurrai zamindagi bir kecha-kunduzlik fursat hoziriga nisbatan 20 millisekundga uzayadi. Nazariy jihatdan qaraganda, ushbu jarayon Yerdagi sutkalik vaqt hisobi Oyning yerdan atrofiga bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan muddatga tenglashguncha davom etadi. O'shanda Oy Yerning faqat bir tomonidagina ko'rinadigan bo'ladi.

DILOROM tayyorladi

# SVETOFORNING «YOSHI» NECHADA?

*Faraz qiling, chorrahada svetofor ishlamay qoldi. Bu holatdan xabar topib, YPX xodimlari yetib kelgunga qadar chorrahada nimalar ro'y berishini tasavvur qilish qiyin emas.*

Kundan kunga avtomobillar ko'payib, texnika shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda yo'llarni, chorrahalarini beminat yordamchilar – svetoforlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugun sizlarga svetoforlarning qaysi paytda, kim tomonidan ixtiro qilingani haqida ma'lumot bermoqchimiz. Dunyodagi birinchi svetofor 1868-yilning dekabr oyida Londonda, Parlament oldidagi maydonga muhandis-mexanik J. Nayt tomonidan o'rnatilgan. Dastlab uning rangi qizil va yashil bo'lib, avtomat tarzda ishlagan. Ikki gaz lampaga ega bo'lgan bu svetofor texnik nosozliklar tufayli tez buzilgan va u barchaning yodidan chiqqan.

Keyinchalik 1914-yilga

kelib, Amerikaning Klivlend, Nyu-York va Chikago shaharlari ko'chalarida elektr toki yordamida ishlaydigan svetoforlar paydo bo'la boshlagan. Ular ham ikki xil rangda, ya'ni qizil va yashil rangda edi. Ilk bor uch rangdagi svetofor 1918-yili Nyu-York shahrida o'rnatilgan.

Bilastmi?



Zuhra NISHONOVA

– Ha, o'g'lim-a, sening har bir nojo'ya harakating tufayli sochlarimga har kuni bittadan oq oralayapti, – deya sho'xlik qilgan o'g'lini koyidi ona.

# XANDALAR



O'g'li chakkasiga rayhon taqib, hovlida yurgan buvijonisining oppoq sochlariga ishora qilib, dedi: – Oyijon, siz ham menga o'xshab rosa to'polonchi bo'lgan ekan-siz-da...



Hayvonot bog'ida yurgan uka akasidan so'radi:

– Akajon, sherlar nega xom go'sht yeyishadi?  
– Shungayam aqling yetmaydimi, axir ularning oshxonasi yo'q-da, – dedi bilag'on aka.

MANZURA tayyorladi

# TEZ AYTISHLAR



Qurilishga terak kerak, Demak, ekmoq kerak terak.

Ikki ukki – aka-uka ukki.

Tolib tovuqxonadan tovuqning tuxumini topdi.

Barmoqlarga tarmashgan, Yonishi mayin latta, Tiqish-bichish ishida, Hissasi juda qatta.



Buvimda bor bir chiroq, Yonib turmaydi biroq. Ish tikar bo'lsa buvim, Taqib oladi shu chog'.



Umid ISMOILOV, Xorazm viloyati, Xiva shahri

8 Respublika rassomlik kolleji o'quvchilari Zulayho MO'MINOVA, Mohira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlardan foydalanildi.

5-avgust 2013



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOC'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'asmasi.

Bosh muharrir  
**Feruza JALILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Zikrilla TESHABOYEV, Quroqboy ERGASHEV, Sobitxon TURGUNOV

**Navbatchi muharrir**  
Dilorom HOTAMOVA  
**Rassom**  
Feruza MATYOQUBOV  
**Dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV  
**Musahhih**  
Nargiza ABDULLAYEVA

**Manzilibiz:**  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 46694  
Buyurtma N: J 7746